



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND  
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024




**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## O'zlashma diniy qasamlarning o'zbek tilida voqealanishi

Akramova Madinabonu Avazbek qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan diniy qasamlar, ularning arab tilida qanday ifodalanishi hamda o'zbek lingvomadaniyatida keng tarqalgan diniy qasamlar haqidaso'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qasam, diniy qasamlar, qasam yuklamalari, o'zlashma qasamlar.

**Annotation:** This article discusses religious oaths borrowed from the Arabic language into Uzbek, how they are expressed in Arabic, and the religious oaths that are widely used in Uzbek linguoculture.

**Key words:** Oath, religious oath, oath particles, borrowed oaths.

Nutq jarayonida qasamlardan foydalanish so'zni ta'kidlash, uning ma'nosini aniq va kuchli tarzda ifodalashning samarali usullaridan biridir. Bu usul gapning maqsadini va o'ziga xosligini aniq ko'rsatishi, inkor qiluvchilarning shubhalarini bartaraf etishi bilan harakterlidir. Diniy qasamlarni Qur'oni Karim oyatlariga tayangan holda o'rganar ekanmiz, ularga arab tili va madaniyatining ta'siri haqida to'xtalib o'tishimiz lozim.

Alloh taolo Qur'oni Karimni arab tilida nozil qildi va arablarning gapirish uslubiga mos qildi. Arablar qisqa, lekin ta'sirchan so'zlarni ishlatish borasida juda mohirdirlar. Buni arab she'riyatidagi qisqalikka e'tibor berilishidan ham bilib olishimiz mumkin. Qur'oni Karimda ham juda ko'p masalalar qasam orqali ifodalangan. Bu esa ana shu masalalarning qisqa, aniq va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. Mana shu jihatni qasamlarda ham kuzatishimiz mumkin.

Arab tilida qasam ochiq qasam ichish ma'nosidagi so'zlar yoki qasam harflari bilan ifoda etiladi. Bu haqida arab tili grammatikasiga oid manbaalar orqali batafsil to'xtalib o'tamiz.

Qasam ot oldiga **بِ** yoki **بِ** yuklamalaridan birini keltirish bilan ifodalanadi. Bu yuklamalardan keyingi ot qaratqich kelishigida keladi. Masalan, **بِالله** ، **بِالله** ، **بِالله** - Xudo haqqi!

Bularning ichida eng ko'p ishlatiladigani **بِالله** dir.

Umuman bu yuklamalarni ishlatishda quyidagi o'ziga xoslik bor:

1. **بِ** - yuklamasi ishlatilganda undan oldin **أَفْسَمَ** - qasam ichmoq fe'li ham ishtirok etishi mumkin. Masalan, **بِكَ أَفْسَمُ** - Sening haqing bilan qasam ichaman.

**أَفْسَمُ بِرَأْسِكَ** - Boshing haqi qasam ichaman.

2. **أَبِكَ لِحْيَةٍ وَ** yuklamas Masalan, **وَالله** - Xudo haqi qasam ichaman, Otangning soqoli haqi qasam ichaman.

**وَ** yuklamasi birikma olmoshlar bilan ishlatilmaydi.

3. ت yuklamasi. Bu yuklama faqat tangri nomiga qo`shibgina ishlatiladi. Masalan, تَالله – Xudo haqi qasam ichaman.

الْكعبة تَرَب - Ka'ba tangrisi haqi qasam ichaman.

Bu yuklamalardan tashqari ba'zan ل yuklamasi ham ishlatilishi mumkin. Masalan, لَعْمُرْكَ - Sening hayoting haqi qasam ichaman<sup>10</sup>.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelamizki, arab tilida qasamni ifodalash uchun ma'lum xarflar mavjud. Shu o'rinda ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan jihat shuki, yuklama tushunchasi borasida arab va o'zbek tillarida farqli tomonlar mavjud. O'zbek tilida yuklamalar so'z yoki gaplarga ta'kid, ayrish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor, so'roq kabi ma'nolarni yuklab keluvchi yordamchi so'z turkumi ekanini bilamiz. Arab tilida esa, so'zlar ism, fe'l, harf (yordamchi) turkumlariga bo'linadi.

Yordamchi so'zlar (الْحَرْف) - o'zi mustaqil kelganda biror ma'no anglatmaydigan ammo ism yoki fe'l guruhidagi so'zlarga ta'sir qilib ularning ma'nosini aniqlashtirib keladigan so'zlardir. Yordamchi so'zlarga aniqlik artikli, undalma, old ko'makchilar, bog'lovchi va yuklamalar kiradi<sup>11</sup>. Arab tilida qasamni ifodalash uchun ham yuklamalar mavjud ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Ya'ni و، ل، ت، ب harflari so'zlarga qo'shilganda ularga qasam ichish ma'nosini ham yuklab keladi. O'zbek tilida qasam ma'nosini yuklovchi qo'shimchalar mavjud emas. Shu bois qasam yuklamalari orqali ifoda etilgan qasamlarni o'zlashma qasamlar sifatida qaraymiz. Bunday qasamlar o'zbek tilida ...ga qasam, ... bilan qasam, qasamki tarzida tarjima qilinadi.

Bu yuklamalardan eng ko'p qo'llangani و va yuklamasidir. Bu yuklama bilan aytiladigan qasamlar o'zbek tilida ham aynan Vallohi tarzida ham qo'llaniladi. So'zlashuv nutqida esa ko'proq Xudo haqi tarzida foydalaniladi va bu qasamning eng faol qo'llaniladigan shakli hisoblanadi. Qolgan yuklamalar bilan ifodalangan qasamlar o'zbek tilida aynan qo'llanilmaydi. Ularni tarjima asosida o'zlashtirilgan varianti qo'llanadi.

Masalan, so'zlashuv nutqida quyidagicha qasamlarga ko'p guvoh bo'lamiz:

"Xudo haqi, men bu ishni qilmaganman"

"Onam haqi, albatta, mana shu ishni qilaman"

"Qur'on haqi, men o'g'irlamadim"

Yuqoridagi kabi qasamlar kundalik hayotda turli masalalarda ko'p ishlatiladigan qasamlardandir. Bundan tashqari og'zaki nutqda muhim narsa vosita qilib olinib, qasam, haqi so'zlari o'rniga ursin so'zi qo'llaniladi.

"Xudo ursin, yolg'on gapiranim yo'q"

"Qur'on ursin, agar aldasam"

"Non ursin, shu ishni men qilgan bo'lsam" singari qasam ichib o'z gapiga ishontirish holatlari ko'p uchraydi.

<sup>10</sup> Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. Toshkent-17. B.378.

<sup>11</sup> Mirqobil Hasanov. Arab tili. Toshkent. 2018. B.44.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fotimaxon Hasanova. Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi: filolfan. bo'icha f. dok-ri...diss. – Toshkent, 2019.
2. Mirqobil Hasanov. Arab tili. Toshkent 2018.
3. Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi. Toshkent-1997.
4. Sadoqat Nurmonova. O'zbek tilidagi qasam nutqiy janrining lingvomadaniy tadqiqi: filolfan. bo'icha f.dok-ri... diss. Andijon-2022.

